

O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL IMKONIYATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING USULLARI.

Bo'ronova Dildora

*Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti Pedagogika fakulteti Magistratura
bo'limi 707-25-guruh magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari, uning shaxs sifatida shakllanishi va kamolotga erishishi, zamonaviy mutaxassis kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi bilan birgalikda istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlarini hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish rejalarini tuza olishi, o'quvchi innovatsion faoliyatida yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan belgilardan foydalangan holda o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishning usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy mahorat, konsepsiya, qiyosiy tahlil, intellektual imkoniyat, induksiya, deduksiya, innovatsion faoliyat, pedagogik jarayon, natijalilik.

Annotation: Together, when this article, the role of students in the team, the formation and perfection of the environmental activities of the modern specialist is discussed, using the development of modern experts, using the professional innovative professional activities of modern specialists, using the efficiency of modern specialists.

Keywords: Professional skills, concept, comparative analysis, intellectual opportunities, induction, determination, pedagogical process, the effectivever.

Анатацыя: У дадзеным артыкуле разглядаецца роля навучэнца ў калектыве, яго станаўленне і сталенне як асобы, умение будаваць планы далейшага развіцця і вырашэння ўзнікаючых задач, а таксама засваенне інавацый у сферы прафесійнай дзейнасці сучаснага спецыяліста, а таксама метады развіцця інтэлектуальных магчымасцей навучэнцаў з выкарыстаннем пэўных прыкмет, якія вызначаюць эфектыўнасць інавацыйнай дзейнасці ў інавацыйнай дзейнасці настаўніка.

Ключавыя словы: Прафесійнае майстэрства, канцэпцыя, параўнальны аналіз, інтэлектуальная здольнасць, індукцыя, дэдукцыя, інавацыйная дзейнасць, педагагічны працэс, выніковасць.

Kirish. O'zbekiston murakkab global xalqaro munosabatlar sharoitida o'zining ertangi kunini barpo qilib kelmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zaminida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'zida mujassam etgan Yangi O'zbekiston konsepsiyas tup maqsadlarini o'zida ifoda etadi. Bugun biz mamlakatimizda demokratik jarayonlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish, fuqarolarning siyosiy-madaniy faolligini oshirish, ularning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki, mamlakatimizda kechayotgan mafkuraviy jarayonlar haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, axborot va so'z erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir

bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylatirmas ekanmiz, maqsadimizga erishishimiz yanada murakkablashib boraveradi. Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalari qatori ma'naviy jarayonlarni rivojlantirish barobarida yurtimizda tinchlik-xotirjamlikni, ijtimoiy totuvlikni, siyosiy barqarorlikni, iqtisodiy taraqqiyotni, fuqarolarning osoyishta va farovon yashashlari huquq va erkin ijod imkoniyatlarini ta'minlash bilan bog'liq keng qamrovli islohot va modernizatsiyalash jarayonlari davom ettirilmoqda. Ma'naviy jarayonlar bilan bog'liq islohotlarni izchillik bilan olib borilishining asosiy sababi, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishga, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan amaliy ishlardir. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy tashviqot texnologiyalari va mexanizmlarini, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarini ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash masalalari ham keng yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagog vazifasiga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi mutaxassisligi bo'yicha uning ilmiy bilimlaridan qat'iy nazar, o'quv jarayoniga kirishar ekan, kerakli pedagogik minimumga, pedagogik va psixologik bilimlar miqdoriga, dars berish metodikasini va texnologiyasini egallagan bo'lishi kerak. Chunki bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini amalga oshirish jarayonida yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash muhim muammo sifatida kuntartibiga qo'yilmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti sharoitida jamiyatning barcha a'zolarining jumladan yoshlarning madaniy va ta'limiy darajasiga bo'lgan talab to'xtovsiz o'sib bormoqda. Shu sababli, yoshlar o'zlarining g'oyaviy-axloqiy sifatlari, saviyalari hamda professional-kasbiy mahoratlari bilan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini jamiyat afzalliklari bilan bog'liq bo'ladigan davlat va jamiyat, ishlab-chiqarish tomonidan ishchi mutaxassislarga qo'yilgan vazifalarni hal qilishga qodir malakali mutaxassislarni yetishtirish lozim. Bugungi kunda kasbiy pedagogika jahon miqyosida tan olingan eng ilg'or usullar va yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Ayni vaqtda o'zining keng tatbig'ini kutayotgan, fanning boshqa sohalari bilan aloqadorlikda ishlab chiqilgan yangi konsepsiya va nazariyalar rivojlantirilmoqda. Respublika xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida kasbiy ta'limni samarali tashkil etish, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sirlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz

maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy tarmoqlar shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi". Shu boisdan mustaqil fikr laydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Maktabdagi o'qitish jarayonida ta'lim, tarbiya va ma'lumot o'zaro mustahkam bog'liq ravishda amalga oshiriladi. O'qituvchi qaysi fanni o'qitishdan qat'iy nazar, o'sib kelayotgan avlodga fan asoslarini o'rgatadi, bilimlarni bayon qiladi. Shu manbalarning mazmuniga qarab tarbiya masalalarini ham hal qiladi, bolalarda ilmiy qarashni tarkib toptiradi, madaniy xulq-atvor ko'nikmalarini tarbiyalaydi, ularning ongiga ilg'or madaniyatlik prinsiplarini singdirib boradi. O'quvchilar jamoasini shakllantirish va unda shaxsni tarbiyalash faoliyati jamoa va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga egadir. Shaxsning shakllanishda ma'lum maqsadga qaratilgan o'zi tushunib yetib, orzu qilgan fazilatlar, sifatlar va xulqlarning shakllantirishi kattarol o'ynaydi. Pedagog jamoani shakllantirishda o'quvchilarning maxsus tashkil etiladigan faol-mustaqil, bilish-tanish, mehnat, estetik, jismoniy faoliyati, tabiiy qobiliyatlarini va ruhiy jarayonlarini rivojlantirishiga, tajribalar, ko'nikmalar hamda bilimlarni egallash, o'zlashtirilishiga katta ahamiyat berilishi lozim. Pedagog estetik, axloqiy, siyosiy,

iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda jamoani hayotga tayyorlaydi. Yangi taraqqiy etib borayotgan, o'sib borayotgan yosh avlodga hayot talablarining murakkablashib borishi, umuman shu tarzda vujudga keladigan ehtiyoj, ta'lim va tarbiyaning yangi mazmunga, shaklga ega bo'lgan uslublari bilangina qanoatlantirilishi mumkin.

O'quvchilar jamoasi bilan ishlashda pedagogik tajriba, pedagogik qarama-qarshilik, pedagogik jarayon, tarbiyaviy muhit, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirish, ta'limni gumanitarlashtirish o'zaro bir-biriga muvofiq kelishi, bir-birini to'ldirishi va boyitishi kerak. O'qituvchi tomonidan pedagogikaning prinsiplari va amaliy qonunlarini ijodiy va faol ravishda o'zlashtirish hamda real shart-sharoitlarni o'quvchilar, o'quvchilar jamoasining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etishi kerak. Jamoa bilan ishlashda vujudga keladigan, eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, konsepsiyalar va pedagogik jarayonning tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimi bilan vujudga kelgan nomuvofiqliklar ustida ishlar olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning mustaqil, ixtiyoriy, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiriladigan ichki faoliyati, inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlar tizimi, ijtimoiy tafakkur, shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarni bir-biriga muvofiqlashtirib jamoani shakllantiramiz. O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish-ijodiy javob talab qiladigan masalalarni yecha olishi, muammoni ko'ra olishi, oldindan qo'yilgan gipoteza va masalani yechish yo'llari va usullarini aniqlash uchun zarur bo'lgan bilimlarni safarbar qilishi, axborotni idrok qilish malaka va ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutiladi. Pedagogika nazariyasida aqliy tarbiya shaxsni hayotga va mehnatga tayyorlashning muhim jihati sifatida belgilanadi. Uning mohiyati shundaki, intellektual faoliyatga qiziqish uyg'otish, bilimlar bilan qurollanish, ularni qo'lga kiritish va amalga qo'llash metodlari, aqliy mehnat madaniyatini joriy qilish orqali aql va bilish qobiliyatlariga rahbarlik qilishdir. Faol mustaqil faoliyat jarayonida aqliy tarbiya to'g'risidagi g'oya ijobiydir, biroq unga yagona qoida sifatida qarashning o'zi yetarli emas.

Fanda to'plangan va insoniyatning tizimga tushirilgan tajribalarni inkor etib bo'lmaydi. Pragmatika nazariyasi tarafdorlari tizimga tushirilgan bilimlarni o'zlashtirish konsepsiyasini

qattiq tanqid ostiga oldilar. Dj. Dyui ta'kidlaydiki, maktabdagi shaxs rivojlanishi, hayoti va tajribasi o'rganilishi lozim bo'lgan va tizimli bilimlar doirasini belgilaydigan o'quv dasturlariga bo'ysundirilgan, zero ular o'lik, mexanik va formal manbalardir. U "maktab fanlari"ning an'anaviyligidan voz kechishini talab qiladi. Demak, o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi, ta'limning tarbiyaviy xarakterini ifodalaydi. Bu jarayonda o'quvchilar sust ishtirok etsalar ham, dars mashg'ulotida ular yuqori intizom namunalarni ko'rsatadilar. Ba'zan bu ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir etishi mumkin. An'anaviy va noan'anaviy ta'limning amalga oshirilishi bevosita dars jarayoni orqali o'qituvchi va o'quvchi kommunikatsiyasi asosida yuzaga keladi. An'anaviy va noan'anaviy o'quv topshiriqlarining ishlab chiqilishi esa malakali mutaxassis, ya'ni ma'lum fanga oid darslik egasining sa'y harakatlari orqali amalga oshiriladi. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, o'qituvchi o'z ta'limi uchun etadigan tajriba mohiyatini shunchalik yaxshi tushunadi. Aqliy tarbiyani rivojlantirish jarayonida bu konsepsiyani boyitishga harakat qilingan. K.D. Ushindkiy aqlni ham formal, ham real rivojlantirish mumkin deb hisoblaydi. Demak, turlicha yondashuvlar, aqliy rivojlanishga bo'lgan amaldagi munosabatlar bilan zich aloqada, deb qarashga imkoniyat beradi. Aqliy rivojlanish bilimlarni o'zlashtirishning faqat hajmi va sifati emas, balki fikrlash jarayoni tuzilmasi, mantiqiy ish yuritish va aqliy harakatlarning boyligi hamda uni to'g'ri qo'llash bilan ham belgilanadi. Aqliy rivojlanishning umumiy sharti keng qamrovli faoliyatdir. Faoliyatning xarakteri ham muhim ahamiyatga molik. O'zi asoslanadigan ilmiy asoslarning kengayishi jarayonida aqliy rivojlanish intensivlanadi. Bunga faoliyatsiz holat va maqsadsiz vaqt o'tkazish zid turadi. U intellektual o'ziqlikni, qo'rqinlikni yuzaga keltiradi. Aqliy rivojlanish bilimlarni faol o'zlashtirish va ijodiy qo'llash jarayonida juda intensiv yuz beradi.

Aqliy rivojlanishning xarakterli xislatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- atrof-muhitga faol munosabatda bo'lish;
- o'ziga ma'lum bo'lganlar chegarasidan chiqishga intilishi;
- nazariy va amaliy maqsadlarda bilimlarni oshirish va ularni ijodiy qo'llashning doimiy zaruriyati;

- kuzatuvchanlik, hodisalar va faktlarning eng mohiyatli jihatlarini va aloqalarini ajrata olish qobiliyati;

- muammolarni ratsional hal qilish uchun zarur bo'lgan vazifalar va vositalar o'rtasidagi aloqalarni ta'minlovchi harakatlar va izlanishlarning izchilligi;

- ishdagi aniqlik va natijalarni qo'lga kiritishdagi ishonchlilikni ta'minlovchi intizomlilik;
- aqliy kenglik- bu aqliy faoliyat va xotira rivoji izchilligiga asoslangan hosila sifatidir;
- keng ilmiy axborotlarga asoslanish qobiliyati;
- keng ilmiy ufq, texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish malakasi;
- real voqelik jarayonlarini to'xtovsiz aks ettiruvchi tushunchalarni o'zlashtirish va foydalanishga moyillik; - aqliy faoliyatning dinamikligi;
- mustaqillik va ijodiy xarakter.

Rivojlangan aqlning eng oliy shakli ijodiy tafakkurdir. U insonning bilish bosqichi va obyektiv voqelikni aks ettirish jarayonining oliy shaklidir. Ijodiy tafakkur faollikning va kishining

mustaqil faoliyatini oliy shakli sifatida ijtimoiy ahamiyat va betakrorlik kasb etadi. G. Selevkoning ta'kidlashicha, tafakkuratrof-muhitdagi obyektlar va hodisalar, ular orasidagi bog'lanishlar, hayotiy muhim voqealarni yechish, noma'lumni axtarish, kelajakni ko'ra olish jarayonlarini bildiradi. G. Selevko tomonidan tavsiya etilgan aqliy faoliyat tasniflarini ko'rib chiqamiz.

- fikrlash vositalari xarakteriga ko'ra: predmetli, harakatli, ko'rgazmali, obrazli, abstrakt;
- mantiqiy sxema jarayoniga ko'ra qiyos, tahlil, abstraksiyalash, umumlashtirish, sintez, tasnif, induksiya, deduksiya, inversiya, refleksiya, antisipatsiya;

- natija shakliga ko'ra: yangi namuna yaratish, tushunchani aniqlash, hukm, xulosa chiqarish, teorema, qonuniyat, qonun, nazariya;

- mantiqiy fikrlash tipiga ko'ra: aqliy-hissiy, faxmiy-nazariy;

Yuqorida keltirilgan tasniflarini o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini shakllantirishda foydalanilganda:

- mustaqil fikrlay olish va unga intilish;

- yangi vaziyatlarda mo'ljalni o'z bilishsa yoki yangi vazifalarni yechishga o'z yondashuvini topa bilish qobiliyati;

- o'zlashtirilayotgan bilimlarni nafaqat tushunishni istash, balki uni qo'lga kiritish usullarini topish;

- boshqa ishlarni baholashda tanqidiy yondashuv;

- o'z hukmlarining erkinligi;

Kabi sifatlarni shakllantiramiz.

I. S. Yakimanskaya "O'quv ishlari usullari" ni ishlab chiqqan. Bu tushuncha o'rganish jarayonining samaradorligini belgilaydigan malaka jarayoniga oid sohani o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqqan holda ishlarning umumta'lim usullarini farqlaydi:

- o'quv faoliyatini rejalashtirish malaka va ko'nikmasi;

- o'quv faoliyatini tashkil etish malaka va ko'nikmasi;

- axborotni idrok etish malaka va ko'nikmasi;

- o'quv faoliyati natijalarini baholash va anglash malaka va ko'nikmasi;

O'quv jarayoni qanchalik samarali darajada amalga oshirilsa, o'quvchilarning intellektual faolligiga ya'ni savol-javob mustaqilligi, jonli faoliyatga o'z tashabbusi bilan kirishishga intilishga erishiladi. O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyati muhim rol o'ynaydi. Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, o'lg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi, zamon bilan birga qadam tashlashga yordam beruvchi kuch sanaladi. "Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan

me'yorlarning mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan mujmal muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir", deb ta'kidlaydi: - V.I. Stobodchikov.

Demak, O'qituvchi innovatsiya faoliyatning markaziy masalasi - o'quv jarayonini innovatsion va samarali tashkil etishdan iborat. Innovatsion faoliyat - uzluksiz ravishda yangiliklar bilan ishlashdan iborat bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsiya faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlarning

fikrlariga tayangan holda, quyidagilarning innovatsiyaning asosiy belgilari deya e'tirof etish mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallash;
- pedagogik tadqiqot usullaridan samarali foydalanish malakalarini o'zlashtirish;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyatlariga ega bo'lish;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- hamkasblar bilan hamkorlikka erisha olish;
- hamkasblar bilan o'zaro fikr almashish, ularga amaliy usul yordam ko'rsata olish

ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish tajribasini o'zlashtirish;
- yangiliklarni izlab topish, ularning bankini yaratish va o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion jarayonlar dinamikasining tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olibgina qolmay, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish, umumlashtirish kabi jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Innovatsiyaning belgilari:

- dolzarb muammolarni hal etishga qaratilganligi (pedagogik innovatsiya muammolari mazmunini yangicha yechimini amalga oshirishga qaratiladi); - pedagogik amaliyotda keng qo'llanish imkoniyati ochiladi.

- pedagogik innovatsiyalar jarayonining o'zgarishi yangilanishga olib keladi. Natijada yangi sifatga ega bo'lgan natijalar qo'lga kiritiladi. Innovatsiyaning tizimining turli predmetlariga ta'siri yangi samaradorlikka olib keladi;

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgan. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shakllaridan biridir. Shu sababli maktab rahbarlari yangiliklarni pedagogik faoliyatga kiritishni rejalashtirishda: yangilikni maqsad va vazifalarini, uni o'quv jarayoniga kiritishning real imkoniyatlari, pedagogik jamoa uchun ijodiy muhit yaratish, ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yangicha ishlash modelini, maktabning moddiy-texnik imkoniyatini, tajriba-sinovini olib borish texnologiyasini boshidan oxirigacha mantiqiy ketma-ketligini pedagogik jamoaning o'zi bilan hamkorlikda ishlab chiqishi kerak. Kelgusida maktab rivojlanuvchi rejimida ishlashi, sifat samaradorligini kafolatlashiga ishonch hosil qilish kerak. Pedagogik jamoa esa ijodkor o'qituvchidan ijodkor pedagogik jamoa majmuasiga aylanishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.

Demak, o'qituvchi yangi pedagog texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatidanamoyon bo'ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyot sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarni qidirishni taqozo qiladi;

- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi;

O'quvchilarning innovatsion faoliyati tahlili – yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga

yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik- pedagogik yangilik sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar. Maqbullik me'yorlari- o'qituvchi va o'quvchining natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarni bildiradi. Natijalilik- o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda- sinalgandan va obyektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi. V. A. Slastenina o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarlikni aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tasniflardan iborat;

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlarini muvaffaqiyatini bashorat qilish;

- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarini aniqlash;

- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;

- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;

- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish;

Demak, ta'lim sifatiga, samaradorligini oshirishga bo'lgan zamonaviy ehtiyoj tobora kengayib bormoqda. Pedagogik texnologiyalarning muhim elementlaridan biri bo'lgan interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlashga, shaxsiy fikrini erkin ifodalashga, o'zgalarning fikrini tinglashga, bildirilgan fikrlarning umumlashtirish va tahlil qilishga, ijodiy loyihalarni yaratish, muayyan muammolarni har tomonlama tahlil qilish va yechimini topishga o'rgatadi.

Xulosa: XXI asrda jahon miqyosida ta'lim jarayoni barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030- yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim

konsepsiyasida "Sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish" dolzarb mavzu sifatida belgilandi. Bu esa, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirishning innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish, ixtirochining va ijodkorlikko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy didaktik parametrlarni aniqlashtirishni taqazo etmoqda. Bunda o'quvchilarga individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirish alohida, o'ziga xos tarzda ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi". 2021-yil. 305 b
2. To'rayev. Sh Yangi O'zbekiston: Ma'naviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar/Sh. To'rayev-Toshkent:" Afzalzoda books" nashriyoti 2023.-268 b
3. Hayitov, O.E. Boshqaruv psixologiyasi: darslik/ O.E. Hayitov-Toshkent: "Istiqlol" nashriyoti, 2021.-236 b
4. A. I. Avazboyev. Kasbiy pedagogika/O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi-T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014-y. 320.b
5. S. Hasanov. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent. "TIB-KITOB" nashriyoti. 2009-y.
6. N.N. Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma:- T. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006-y. 160 b
7. Sh.I. Abdullayeva. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma:-T. 20022-y. 208 b
8. O'. Tolipov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma:-T. "INNOVATSIYA-ZIYO" nashriyoti. 2019-y. 276b
9. https://t.me/ipu_arm_xizmat